

TTPU da yozgi amaliyot

Bugungi kunga kelib, Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida 4-bosqich talabalari, o'z yo'nalishlari bo'yicha yozgi amaliyotga jalb qilinib kelinmoqda. Amaliyot dasturi talabalarning universitetda olgan nazariy bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam bermoqda. TTPU ning boshqa universitetlardan farqi shundaki, amaliyot bo'yicha topshiriq va ishlar onlayn tarzda maxsus platforma orqali olib boriladi. O'quv rejaga ko'ra, agar talaba amaliyotni o'z vaqtida muvaffaqiyatli tamomlasa, 10 kredit ekvivalentini (ECTS) qo'lga kiritadi va Universitetni tamomlash uchun yo'llanmani oladi.





Maxsus platforma orqali korxonalar va tashkilot nomlari bilan shakllantirilgan tanlov bo'limi yaratilgan bo'lib, talaba o'zi tanlagan korxonalar yoki tashkilotga borishi "O'quv-uslubiy va ilmiy" bo'limi (Bo'lim) tomonidan ta'minlanadi.

Bo'lim tomonidan talabalar ro'yxati shakllantiriladi va maxsus platformaga joylashtiriladi. Har bir korxonalar va tashkilotga birlashtirilgan talabalarni nazorat qilish uchun Tyutor tayinlanadi.



Talabalar amaliyot o`tash mobaynida quyidagi bosqichlardan o`tishlari zarur bo`ladi:

Birinchi bosqichda, amaliyot kundaliklarini maxsus platformaning "Summer Internship Journal" bo`limiga kirib, undagi amaliyot kundaliklarini elektron shaklini yuklab olishadi.

Amaliyot o`tash davrida talabalar ushbu kundalikni to`ldirib borishadi va bu amaliyot ishlari tyutorlar tomonidan nazorat qilib boriladi. Talaba kundalikni to`ldirib bo`lgach, amaliyot o`tagan tashkilot yoki korxonaning muxri bilan tasdiqlangan shaklini polito.uz saytining tekshirish uchun maxsus bo`limiga yuklaydi.

Discussion	Started by	Last post	Replies
FOR ATTENTION	MUSOBEK ISMAL. 27 Jul 2021	Bakhtiyorjon M. 7 May 2022	1
Presentation Template	Jaloliddin Yusu.. 16 Jul 2021	Jaloliddin Yusu.. 16 Jul 2021	0
Summer Internship Journal(diary)	MUSOBEK ISMAL. 24 May 2021	MUSOBEK ISMAL. 24 May 2021	0
About Report	MUSOBEK ISMAL. 7 Jun 2021	MUSOBEK ISMAL. 7 Jun 2021	0
LMS Credentials	Jaloliddin Yusu.. 4 Jun 2021	Jaloliddin Yusu.. 4 Jun 2021	0
FAQ	MUSOBEK ISMAL. 24 May 2021	MUSOBEK ISMAL. 24 May 2021	0

Ikkinchi bosqichda, talaba amaliyot o'tash mobaynida o'rgangan bilimlarini 30 varoqdan iborat xisobot shaklida yozib, "Yakuniy xisobot" deb nomlangan saytning maxsus bo'limiga yuklaydi.

Uchinchi bosqichda, talaba amaliyot davrida bajargan ishlari haqida taqdimot tayyorlaydi va saytning maxsus "Prezentatsiya" deb nomlangan bo'limiga joylashtiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha topshiriqlar Bo'lim tomonidan biriktirilgan Universitetning professor-o'qituvchilari tomonidan tekshiriladi va 30 ballik shkalada baholanadi.

 Q&A Summer Internship 2021

 Scanned Journal

Please upload the scanned version of your Journal (diary) here

 Report

Please upload your 30 page reports here

 Presentations

Please upload your preliminary presentations here

Bo'lim tomonidan barcha bosqichlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalarning ro'yxati shakllantiriladi. Ro'yxat platformada e'lon qilinadi va u asosida yakuniy imtihon tashkil etiladi. Bu imtihonda talaba tomonidan shakllantirilgan taqdimot, universitetning professor-o'qituvchilaridan tashkil topgan hay'at a'zolari oldida himoya qilinadi.

Yuqoridagi barcha sanab o'tilgan jarayonlar onlayn tarzda

universitetning maxsus platformasi orqali olib boriladi va bu o`z navbatida o`qituvchilarga hamda, talabaga birdek qulaydir.